

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI VA XALQARO HUQUQ NORMALARINING O'ZARO NISBATI

Komilova Dilnura Raximboy qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15399548>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining xalqaro huquq normalariga nisbatan tutgan o'rni, o'zaro ta'sir mexanizmlari hamda ustuvorlik masalalari yoritilgan. Shuningdek, xalqaro huquq va milliy qonunchilik o'rtasidagi nazariy yondashuvlar (dualizm va monizm), xalqaro shartnomalarning milliy qonunlarga integratsiyasi, tarixiy taraqqiyot bosqichlari, shuningdek, diniy erkinlik sohasida yuzaga kelgan amaliy keys asosida tahlillar berilgan. Maqolada xalqaro huquqning ustuvorligi, O'zbekistonning xalqaro majburiyatlarini bajarishdagi yondashuvi va huquqiy islohotlar bilan bog'liq jihatlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, xalqaro huquq, ustuvorlik, dualizm, monizm, diniy erkinlik, O'zbekiston, xalqaro shartnoma.

THE RELATIONSHIP BETWEEN THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THE NORMS OF INTERNATIONAL LAW

Abstract. This article discusses the role of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in relation to the norms of international law, the mechanisms of interaction and issues of priority. Also, theoretical approaches between international law and national legislation (dualism and monism), the integration of international treaties into national laws, stages of historical development, as well as practical cases in the field of religious freedom are analyzed. The article analyzes the primacy of international law, Uzbekistan's approach to fulfilling its international obligations, and aspects related to legal reforms.

Keywords: Constitution, international law, priority, dualism, monism, religious freedom, Uzbekistan, international treaty.

СООТНОШЕНИЕ КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И НОРМ МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА

Аннотация. В статье рассматривается роль Конституции Республики Узбекистан в международном праве, механизмы взаимодействия и вопросы приоритета. Также представлены теоретические подходы между международным правом и национальным законодательством (дуализм и монизм), интеграция международных договоров в национальное законодательство, этапы исторического развития, а также анализы, основанные на практических случаях в области религиозной свободы. В статье анализируются верховенство международного права, подход Узбекистана к выполнению своих международных обязательств, а также аспекты, связанные с правовыми реформами.

Ключевые слова: Конституция, международное право, примат, дуализм, монизм, свобода вероисповедания, Узбекистан, международный договор.

Kirish: Bizga berilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Xalqaro huquq normalarining o'zaro nisbati to'g'risida gapirishdan oldin eng avvalo Konstitutsiya to'g'risida ta'riflarga to'xtalib o'tish lozim. **Konstitutsiya** – bu davlatning eng oliy yuridik kuchga ega bo'lgan qonuni hisoblanadi xususan asosiy qonun deb ham yuritiladi.

O'z navbatida Konstitutsiya davlatchilikning, qonuniylik va huquq-tartibotning va qonunlarning asosi hisoblanadi. Konstitutsiya bu yuridik hujjatdir. Konstitutsiya faqatgina boshqa qonunlar kabi yuridik hujjat bo'libgina qolmay, siyosiy hujjat sifatida ham qo'llaniladi.

Sababi Konstitutsiya jamiyatdagi siyosiy munosabatlarni tartibga solishda o'zining ta'sir kuchini o'rnatadi. Hozirgi vaqtlarga kelib, Konstitutsiyani davlatsiz, davlatni esa Konstitutsiyasiz vujudga kelishi, faoliyat yuritishini tasavvur qilish qiyin. Lekin esa oldinlari davlat mavjud bo'lgan davrlarda konstitutsiya bo'lmagan, ya'ni Konstitutsiyasiz faoliyat yuritgan. Konstitutsiya baynalmilal atama bo'lib, lotin tilidan olingan va —o'rnatamanl, —tasdiqlaymanl degan ma'nolarda qo'llaniladi. Hozirda —tuzilishl degan ma'nolarda ham qo'llanilib kelinmoqda. Qadimgi yuridik jihatdan ham Rim imperatorlarining ko'rsatmalari ham konstitutsiya deb atalgan davrlar bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ya'ni Bosh qomusimiz **1992-yil 8- dekabrda** qabul qilindi. Bu Konstitutsiya o'ziga davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlar tizimini, ularning vakolatlari, jumladan, shakllantirish tartibini, saylov tizimini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va shaxs o'rtasida bo'ladigan munosabatlarni, sud tizimini, xususan, davlat va jamiyat munosabalarining barqarorligini belgilab, ta'minlashdan iboratdir. Shuningdek O'zbekistonning Konstitutsiyasi **2023-yil 30-aprelda** referendum orqali o'zgartirish va qo'shimchalar amalga oshirilib, 155 modda 6 bo'lim 26 bobdan iborat shakldagi yangi tahrirda qabul qilindi. Bunday o'zgartirishdan maqsad esa, fuqarolar va shaxslarning huquqiy holatini, erkinliklarining kafolatlarini, davlat hokimiyatini demokratik tashkil qilish, xalq o'zlari saylab qo'yiladigan vakillik organlarining qonuniylik prinsipiga rioya qilgan holda o'zining majburiyatlarini bajarishini nazarda tutgan holda amalga oshirildi. O'z navbatida Konstitutsiyamizning kirish qismida **“Preamble”**-muqaddima qismining mavjudligi va undagi maqsad va vazifalar, davlatchilikda qabul qilinadigan, tayaniladigan qadriyatlar, xalq va kelajak avlod oldidagi ma'sulyatlar belgilab qo'yiladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning muqaddimasida O'zbekiston dastlab mustaqillikka erishganda shu yillarda qo'lga kiritgan yutuqlari va yangi maqsad va vazifalarini hisobga olgan holda ularni yanada boyitib belgilandi.

Konstitutsiyamizda asosiy bayon qilinganlardan bu birinchi bo'limda —Asosiy prinsiplarl mustahkamlangan bo'lib, ularga —Davlat suverenitetil, —Xalq hokimyatchiligil, —Konstitutsiya va qonunning ustunligil, —Tashqi siyosatl prinsiplaridan iborat bo'lib, avvalo, davlatchilik negizlari shular asosida amalga oshiriladi. Bevosita mavzu doirasidan uzoqlashmagan holda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining hozirgi kunda xalqaro maydonda qay darajada o'zining ta'sir kuchiga ega ekanligini Konstitutsiyamizning —Tashqi siyosatl bobining 17-moddasida ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarni amalga oshirish jarayonida o'zining to'la huquqli subyekti sifatida ishtirok eta olishi. O'zbekistonning tashqi siyosatida davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki vakolat doiralarga kiradigan ishlariga aralashmaslik prinsiplariga, jumladan, xalqaro huquqning umum'etirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi¹. Bundan shuni ko'rish lozimki, O'zbekiston xalqaro maydonda o'zining huquqini amalga oshirishda o'zini mustaqil davlat hisoblagan holda ishtirok eta olishi, huquqlardan to'sinliksiz foydalanishi, davlatlarning barchasi suverenitetining tengligi,

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Matn).-Toshkent:-2023-y-112b.

bir-birlarini hurmat qilgan holda har qanday munosabatlarga kirisha olishi, munozarali ziddiyatlar vujudga kelganda tinchlik bilan diplomatik aloqalarni mustahkamlagan holda hal qilish, har bir davlatni o'zining ichki tartib qoidalari mavjud bo'lib, ularga boshqa davlatlarning aralashmasligi ya'ni qandaydir bosim, tazyiq o'tkazilmasligi, xalqaro huquq miqyosida yagona prinsip va qoidalar mavjud bo'lib, ulardan chetga chiqmagan holda harakatni amalga oshirishdan iboratdir. Xalqaro huquqning asosiy o'nta prinsiplari mavjud bo'lib bular: kuch ishlatmaslik va kuch bilan xavf solmaslik, davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, xalqlarning o'zini o'zi anglashi va teng huquqliligi, xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish, davlatlarning hamkorlik qilishga majburligi, chegaralarning mustahkamligi, davlatlarning hududiy daxlsizligi, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish va eng asosiysi davlatlarning suveren tengligi. Yuqoridagi prinsiplar imperativ norma hisoblanadi.

Xalqaro prinsipga tarmoq prinsiplari mos kelishi kerak.

Ilmiy nazariy jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, Xalqaro huquq huquqning boshqa sohaları kabi o'z -o'zidan paydo bo'lgan emas. U muayyan ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida qabilalar va qadimiy ilk jamoalar qabilalarning yozilmagan qonunlari bilan birlashgan edilar. Ya'ni ularda odat me'yorlari mavjud bo'lgan. Binobarin, xalqaro huquq ijtimoiy hodisa sifatida o'ziga xos tarixga ega. Demak, har narsaning rivojlanish bosqichlari bo'lgani kabi, xalqaro huquqning ham o'z rivojlanish bosqichlari mavjuddir.

Birinchi bosqich - Qadimgi dunyo xalqaro huquqi. Bu davr quldorlikka asoslangan bo'lib mil.avv.4 ming yillikdan to milodning 476-yilgacha bo'lgan davrni qamrab olgan. Bu davrda asosiy ish kuchini qullar tashkil etgan. Quldorlikka asoslangan jamiyatlarga misol qilib Qadimgi Yunonistondagi Afina va Spartta davalatlarini keltirishimiz mumkin. Buning sababi shuki, qullar iqtisodiy tizimning ajralmas qismi hisoblanadi. Lekin vaqt o'tishi bilan qulchilik tizimi o'z ahamiyatini yo'qotib, boshqa iqtisodiy tizimlarga o'rnini bo'shatib beradi ya'ni ikkinchi bosqich boshlanadi.

Ikkinchi bosqich - O'rta asr xalqaro huquqi. Ushbu bosqich 476-1648yilgacha bo'lib, feodal ijtimoiy iqtisodiy tuzumga to'g'ri keladi. Ushbu davr yer egaligiga asoslangan va ijtimoiy tabaqalanish orqali tashkil etilgan tuzumdur. Masalan, Germaniyada feodalizm kuchli bo'lgan, bu yerda mahalliy knyazliklar va graflar mustaqil hokimiyatga ega edilar.

Uchunchi bosqich -1648-1945- yillar Klassik xalqaro huquq. Bu davr kapital ishlab chiqarishning paydo bo'lishi va rivojlanish davri hisoblanadi. Misol qilib Fransiya inqilobi(1789).

To'rtinchi bosqich- Zamonaviy xalqaro huquq. 1945- yildan 21 asrning boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan². Zamonaviy huquq texnologik taraqqiyot va xalqaro hamkorlik bilan uzviy bog'liq. Shu sababli xalqaro huquq tez tez yangilanib turadi. Mavzudan chetlashmagan holda, tarixga yuzlanadigan bo'lsak, ko'p yillar davomida xalqaro huquq iborasi shubha ostiga olingan. Sababi u xalqlar o'rtasidagi emas, balki davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi deb hisoblaganlar. O'rta asrlarda davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonun g'oyasi paydo bo'lganda, huquqshunoslar zarur atamani qidirib, Rim huquqiga yuzlanganlar. Unda rim fuqarolarini chet elliklar bilan munosabati va qator mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan normlar belgilab qo'yilgan. Ushbu nomga keyinchalik o'zgartirishlar kiritilgan ya'ni "jus inter gentes".

² Xalqaro ommaviy huquq (Matn):darslik /A.X.Saidov va boshqalar .-T,:TDYU nashriyoti ,2023 -23b

Shuningdek, xalqaro huquq uchun nom muammosi, asosan, slavyan rus va nemis tillarida mavjud bo'lib, rus va nemis mualliflari (**V.A.Nezabitovskiy, N.MKorkunov, I.Kant, F.List va boshqalar**) alohida e'tibor qaratganlar. **17-asrlarga kelib ingliz olimi Zyoch** birinchi bor "xalqlar o'rtasidagi huquq" iborasini qo'llagan. Keyinchalik "**xalqlar huquqi**" o'rniga "xalqaro huquq" iborasi kelib chiqqan³. Avvalo, shuni ta'kidlash joizki, xalqaro huquqni paydo bo'lishi davlatlarning xohish irodasiga bog'liq bo'lmagan holda, balki insoniyatning qurshab turgan muhit, ularning boshqa davlatlar bilan harbiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarga kirishishi, ijtimoiy mehnat taqsimoti, davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi orqali xalqaro huquqning paydo bo'lishiga o'z-o'zidan sababchi bo'lib qolgan deb hisoblasak adashmagan bo'lamiz. Bugungi kunda milliy va xalqaro - huquqiy tizimlar o'rtasidagi munosabatlar dolzarb masalalardan biridir. Ikkita tizimning ham maqsadi munosabatlarning tartibga solishga qaratilgan bo'lsa ham, ular o'rtasida bir qancha farqalar mavjud. Xalqaro huquq davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishi va tartibga solish obyekti bilan milliy huquqdan ajralib tursa, milliy huquq esa o'z davlati hududi chegarasi doirasiga tegishli bo'lgan munosabatlarni tartibga solishi bilan xalqaro huquq tizimidan ajralib turadi. Binobarin, xalqaro huquq va milliy huquq o'rtasida tur xil farqalar mavjud bo'lishiga qaramasdan, ikkita huquq tizimi ham bir-birini to'ldirib va bir-biriga ta'sir etib turadi. Yuqorida ta'kidlab o'tgan tizimimiz haqida bir nechta olimlarimizning nazariyalari mavjud. **Tripel, Ansiletti, Kamarovskiy** singari ko'zga ko'ringan vakillari mavjud bo'lgan, 19-asrning oxirida paydo bo'lgan dualistik nazariyada xalqaro huquq va milliy qonunchilik tizimini har tomonlama o'rgangan holda, ya'ni ularning tartibga solish obyekti, huquqiy munosabatlarning subyekti hamda bu tizimlarda mavjud bo'lgan yuridik normalarning kelib chiqish manbalari jihatidan nazar solgan holda, bu ikki tizim bir-biridan alohida ekanligi va o'zaro bo'ysunmasligi ta'kidlanadi. **Dualistik nazariya**, ya'ni dualizm tarafdorlari yuqoridagi ikki huquqiy tizim o'z faoliyati doirasida mutlaqo to'qnashmasligini va har birining huquqiy munosabatlarni tartibga solishning sohasi turlicha ekanligi g'oyasini ilgari suradilar. Oradan vaqt o'tishi bilan dualistik nazariya vakillari o'z o'rganishlari natijasida xalqaro huquq va milliy qonunchilik tizimlari o'rtasida aloqa mavjudligi va aynan shu bog'liqlik mavjud bo'lmagan taqdirda bu ikki tizim o'z faoliyat yo'nalishlarida amalga oshiradigan vazifalarini to'laqonli bajara olmasligimi aniqladilar⁴. Natijada, nazariya yo'nalishini o'zgartirib, yangi yo'nalish oldi va bu jarayon "dialektik dualizm" degan nom oldi. Endilikda nazariya tarafdorlari milliy huquqiy tizim hamda xalqaro huquqiy tizim o'rtasida uzviy aloqalar borligini e'tirof etgan holda xalqaro huquqning milliy huquqdan ustun jihatlarini tan oldilar. **Dualistik** nazariya bilan tubdan farq qiluvchi nazariya bu monistik konsepsiyadir. **Monistik** konsepsiyasiyaning vakillariga **Lasson, Kaufman, Kelzen va Russo** kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Bu nazariyada xalqaro huquqni milliy huquq tizimlarining yig'indisi sifatida ta'riflaydilar, ya'ni xalqaro huquq milliy huquq tizimlarining eng muhim va umumiy qismlarini o'zida mujassamlashtiradi. Xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro huquq davlatlarning ichki huquq tizimi, ya'ni milliy qonunchiligi takomillashishi natijasida o'zgaradi va rivojlanib boradi.

Shundan ko'rinib turibdiki, milliy huquq xalqaro huquqqa ta'sir o'tkaza oladigan birlamchi omildir⁵.

Bevosita mavzuyimiz doirasida asoslantiruvchi qismiga yuzlanadigan bo'lsak, 1969-yilda qabul qilingan "**Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risida**"gi Vena konvensiyasi BMT

³ Xalqaro ommaviy huquq (Matn):darslik /A.X.Saidov va boshqalar .-T,:TDYU nashriyoti ,2023 -20b

⁴ Hozirgi zamon xalqaro huquq nazariyasi asoslari I.I.Lukashuk,A.X.Saidov (2007)

Nizomi asosida tuzilgan bòlib, xalqaro huquq tizimida asosiy prinsiplarning o`rni, belgisi va boshqa normalar bilan uzviy aloqadorligini aniqlab bergan. Ushbu manbaga ko`ra, xalqaro huquqning barcha subyektlari uchun majburiylikdir. **BMT Nizomining 2- moddasi 6 – bandiga muvofiq:** —tashkilot a`zosi hisoblanmagan davlatlarning ushbu prinsiplarga muvofiq harakat qilishlarini taminlaydi. Sababi bu xalqaro miqyosda tinchlik va barqarorlikni ta`minlashda qo`llab –quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi<sup>5</sup>. Shuni alohida ta`kidlash joyizki, asosiy prinsiplar nafaqat xalqaro huquq tizimiga boshchilik qiladi, shu bilan birga davlatlarning konstitutsiyaviy normalariga kiritilishi barobarida milliy huquqiy tizim normalariga ham o`z ta`sirini o`tkazib ,huquqiy tizimlarning o`zaro aloqasini yaqol namoyon qiladi. Masalan 1947- yilgi Italiya Knstitutsiyasining 10- moddasi , 1949- yilgi Germaniyaning asosiy Qonunining muqaddimasi, 1958- yilgi Fransiya Konstitutsiyasining muqaddimasi va O`zbekiston Respublikasining 17- moddasida .O`zbekiston 1992- yil 2- martda BMTga a`zo bo`lganidan beri turli xalqaro shartnomalar va konvensiyalarni ratifikatsiya qilib kelmoqda. O`zbekistonning BMT bilan hamkorligi inson huquqlari sohasida ham muhim ahamiyatga ega, chunki bu davlatning xalqaro huquqiy majburiyatlarini rivojlantirishga bevosita ta`sir ko`rsatadi. Yuqoridagilarga qo`shimcha qilib shuni bayon qilishimiz mumkinki, Xalqaro sud Statutining 38- moddasi birinchi qism⁶ bandiga muvofiq —Sud o`ziga berilgan nizoli ishni hal qilshda —millatlar tomonida tan olingan xalqaro huquqning umumiy tamoyillarini qo`llaydi⁵. **BMT Nizomida agar milliy qonunchilik va xalqaro hujjatlar o`rtasida tafovut kelib chiqsa, xalqaro hujjatlarning yuridik kuchi yuqoriroq ekanligini ko`rsatilgan ushbu jumladan O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15 -moddasida ham keltirib o`tilgan.**

Keys. O`zbekistonda diniy erkinlik va xalqaro huquq o`rtasidagi ziddiyatlar misol sifatida "Imom al-Buxoriy" jamiyati faoliyati va unga nisbatan cheklovlar qo`llanganini tahlil qilish mumkin. Bu masala, asosan, milliy qonunchilik va xalqaro huquq talablari o`rtasidagi farqlar, shuningdek ,davlat xavfsizligi va inson huquqlarini himoya qilish o`rtasidagi nozik muvozanat bilan bog`liqdir. Ushbu masalani huquqiy tahlil qilish uchun batafsil yoritib o`tamiz. "Imom al -Buxoriy" jamiyati diniy va madaniy ehtiyojlarini qondirish, musulmonlar uchun diniy bilimlarni oshirish maqsadida tashkil etilgan. O`zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, jumladan ,diniy e`tiqod erkinligidan foydalanishi mumkin. Biroq, davlat xavfsizligi va barqarorlikni ta`minlash maqsadida hukumat diniy tashkilotlarning faoliyatiga nisbatan cheklovlar qo`llaydi. Ushbu vaziyat 2018- yildagi O`zbekistonda diniy tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunning kuchga kirishi bilan yana ham murakkablashdi. Bu qonunga ko`ra, diniy tashkilotlar ro`yxatdan o`tishi va davlat tomonidan nazorat qilinishi lozim bo`ldi. Natijada, ayrim diniy tashkilotlarning ro`yxatdan o`tishi murakkablashdi yoki ularga butunlay ruxsat berilmadi .Xususan, "Imom al- Buxoriy" jamiyatiga o`xshash diniy tashkilotlarga qarshi qattiqroq chora-tadbirlar ko`rildi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31 moddasida har bir shaxsga vijdon erkinligi, ya`ni o`z diniy e`tiqodini amalga oshirish huquqini kafolatlaydi. Ushbu moddaga ko`ra, har kim o`z e`tiqodini erkin ifoda etish huquqiga ega, va davlat bu huquqni cheklamasligi lozim. Xalqaro huquq nuqtai nazaridan, O`zbekiston BMTning Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi va Fuqarolik va siyosiy huquqlar to`g`risidagi xalqaro paktiga qo`shilgan bo`lib, unda diniy erkinliklarni kafolatlash majburiyati bor. Ushbu hujjatlar fuqarolarning vijdon erkinligi, diniy

⁵ Jahon iqsodiyoti va diplomatiya universiteti, (2020)

faoliyat va e'tiqod erkinligi kabi huquqlarini himoya qilishni talab qiladi.

Xalqaro hamjamiyat, ayniqsa, diniy tashkilotlarning ro'yxatdan o'tish jarayonida hukumatning cheklovlarini inson huquqlari buzilishi sifatida baholaydi. Xalqaro Sud Qarori Yevropa Inson Huquqlar Sudi (ECHR) bu kabi masalalarni ko'rib chiqib, xalqaro miqyosida O'zbekiston hukumati tomonidan qo'llanilgan cheklovlar qanchalik qonuniy ekanligini baholashda o'z qarorlarini e'lon qilgan. Jumladan, 2009-yilda "Khadzhiev va boshqalar O'zbekiston"ishi bo'yicha qarorda, ECHR O'zbekiston tomonidan diniy tashkilotlarni ro'yxatdan o'tkazish va ularning faoliyatini nazorat qilish inson huquqlari buzulishi sifatida qayd etildi. ECHR qarorida davlatning diniy erkinlikka bo'lgan majburiyatlari va xalqaro huquqning ustuvorligi ta'kidlangan. Ushbu masala davlatning suvereniteti va xavfsizlik masalalariga ham bog'liq. O'zbekiston hukumati xavfsizlikni ta'minlash va ekstremizmga qarshi kurashishni asos sifatida ko'rsatgan holda diniy tashkilotlarning faoliyatini cheklashni oqlaydi. Biroq, xalqaro huquq nuqtai nazardan, har qanday cheklov inson huquqlarini himoya qilish maqsadida, zarur va mutanosib bo'lishi kerak. Bu o'rinda xalqaro huquq O'zbekistonning diniy tashkilotlarga qo'ygan cheklovlari ortiqcha ekanini ta'kidlaydi. O'zbekiston bu masalalarda xalqaro huquq talablariga rioya qilishi, xalqari sud qarorlarini bajarishi va diniy erkinliklarni ta'minlash borasida islohotlar olib borishi mumkin. Shu bilan birga, davlat xavfsizligi masalalarini inobatga olgan holda, diniy tashkilotlar faoliyatini nazorat qilishning samarali va inson huquqlariga zid bo'lmagan shakllarini joriy etish yo'llarini izlash lozim bo'ladi⁶.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, xalqaro huquq milliy qonunchilik davomi sifatida ko'rish uchun yetarli asoslar mavjud.

Xalqaro huquq va milliy qonunchilik o'rtasidagi nisbat davlatlararo munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Xalqaro huquq davlatlarning o'zaro kelishuvlari, xalqaro tashkilotlarning qarorlari va umum e'tirof etilgan prinsiplarga asoslanadi. Milliy qonunchilik esa har bir davlatning ichki siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tuzilishiga muvofiq ishlab chiqiladi. Xalqaro huquqning milliy qonunchilikka ta'siri xalqaro kelishuvlar va shartnomalar orqali amalga oshadi. Davlatlar xalqaro shartnomalarga qo'shilganda o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish uchun milliy qonunchilikka tegishli o'zgartirishlar kiritadi. Bu holat xalqaro huquqning milliy qonunchilikdan ustunligini ifoydalaydi. Lekin ayrim hollarda milliy suverenitetni saqlash uchun davlatlar xalqaro huquq talablarini to'liq qabul qilmasligi ham mumkin. Xulosa qilib aytganda, xalqaro huquq va milliy qonunchilik o'rtasidagi o'zaro nisbat bir-birini to'ldiruvchi va qarama-qarshi bo'lishi mumkin. Agar O'zbekistonning ichki qonunlari va xalqaro shartnomalari o'rtasida ziddiyat yuzaga kelsa, xalqaro huquq normasi ustun hisoblanadi. Bunday holatda O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 17-moddasida belgilangan bo'lib, u xalqaro majburiyatlarni tan olishi va unga rioya qilishini ta'kidlaydi. Yuqorida keltirilgan misollar O'zbekistonning xalqaro huquqiy majburiyatlari va milliy qonunchilik o'rtasidagi o'zaro aloqalarini ko'rsatadi. Shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, xalqaro huquq, milliy qonunchilikni yangilash va takomillastirishga yordam beradi. Bu esa mamlakatning xalqaro hamjamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga yordam beradi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Matn]. - Toshkent: 2023-y - 112 b.
2. Xorijiy mamlakatlar konstitutsiyasi.

⁶ Google.com - <https://inlibrary.uz/index.php/iilc/article/view/38784>

3. Odilqoriyev. X.T, B.E.Ochilov. Xalqaro Ommaviy Huquq. Darslik.
4. Xalqaro huquq. Darslik. Mas'ul muharrir y.f.n., prof. G.Yuldasheva // Mualliflar jamoasi. –T.: TDYU nashriyoti, 2017.
5. Xalqaro huquq bo'yicha keyslar to'plami [Matn]:X 21 o'quv qo'llanma / Mualliflar jamoasi. - T.: TDYU nashriyoti,.
6. Xalqaro ommaviy huquq [Matn]: darslik / AX. Saldov va boshqalar. - T= TDYU nashriyoti, 2023, - 952 b.
7. Курс международного права : учебник. — Москва : Проспект, 2019.. • Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari. Lukashuk, Saidov , 2007
8. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya unversiteti, 2020 y.